“ALPOMISH MEROSI” MCHJ SHAXAR ICHIDAGI 222 – 75 AVTOBUS YO’NALISHLARINI TAHLIL QILISH

Madaminova Muqaddasxon Odiljon qizi
Andijon davlat texnika instituti
“Avtomobilsozlik va transport” fakulteti
“Transport logistikasi” yo‘nalishi
K 46-22-guruh talabasi
E-mail: muqaddasmadaminova13@gmail.com; +998508902366

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Alpomish merosi” MCHJ tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan shahar ichidagi avtobus yo‘nalishlarining faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yo‘nalishlarning aholi uchun ahamiyati, yo‘lovchilar oqimi, transport xizmatlari sifati hamda mavjud muammolar o‘rganildi. Shuningdek, avtobus qatnovlarini samarali tashkil etish, tirbandliklarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Mazkur tahlil jamoat transport tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Jamoat transporti, avtobus yo‘nalishi, yo‘lovchilar oqimi, transport infratuzilmasi, qatnov samaradorligi, shahar transporti, “Alpomish merosi” MCHJ, avtobus tizimi, transport xizmati, logistika.

Kirish. Hozirgi kunda shahar transport tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Aholining kundalik hayoti, mehnat faoliyati, ta’lim olishi hamda turli xizmatlardan foydalanishi bevosita transport tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, yirik shaharlarda aholining son jihatdan ortib borishi, yangi turar joy massivlarining qurilishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu sababli zamonaviy, xavfsiz va qulay transport xizmatlarini tashkil etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jamoat transporti tizimida avtobus yo‘nalishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular aholining asosiy qatnov ehtiyojlarini qondirishda muhim vosita hisoblanadi. Avtobus transporti nisbatan arzonligi, keng hududlarni qamrab olishi va aholining barcha qatlamlari uchun qulayligi bilan boshqa transport turlaridan ajralib turadi. Shahar ichidagi avtobus yo‘nalishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi yo‘lovchilarning vaqtini tejash, transport tirbandliklarini kamaytirish hamda ekologik holatni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport xizmatlari sifatining yuqori bo‘lishi aholining turmush darajasi va shahar infratuzilmasining rivojlanganlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda transport tizimini modernizatsiya qilish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda yo‘lovchi tashish faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, shahar transportida elektron to‘lov tizimlari, GPS monitoring, raqamli boshqaruv tizimlari va ekologik toza avtobuslarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday yangilanishlar transport qatnovining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda yo‘lovchilarga yanada qulay sharoit yaratishga xizmat qilmoqda.

Alpomish merosi” MCHJ tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan avtobus yo‘nalishlari ham shahar jamoat transporti tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar orqali shaharning turli hududlarida istiqomat qiluvchi aholi markaziy qism, ta’lim muassasalari, ish joylari, savdo markazlari va boshqa ijtimoiy obyektlar bilan bog‘lanadi. Mazkur yo‘nalishlarda har kuni minglab yo‘lovchilar qatnovni amalga oshiradi. Ayniqsa, ertalab va kechki tig‘iz vaqtlarda yo‘lovchilar oqimining keskin ortishi transport tizimining samarali ishlashini talab etadi.

Hozirgi kunga kelib “Alpomish merosi MCHJ” shahar ichida 3ta jamoat transporti yo’nalishlari mavjud bo’lib bular :

1-yo’nalish Markaziy shaxar shifoxonasidan –Gulshan MFY

75-yo’nalish Pistamozor – 36-post

22-yo’nalish Pistamozor – Markaziy shaxar shifoxonasi .

Avtobuslar shu yo’nalishlar orqali harakatlanib transport xizmatlarini olib boradilar.

222-sonli avtobus yo‘nalishi:

222- avtobus yo’nalishi 2023-yil ochilgan bo’lib yo’nalishning ishlash mavsumi doimiy hisoblanadi. Pistamozor bekatidan Markaziyshahar shifoxonasi bekatigacha 14,09 km hisoblanadi. Markaziy shahar shifoxonasi bekatidan Pistamozor bekatigacha 13.9 km ni tashkil etadi. 222-sonli Pistamozor –Markaziy shahar shifoxonasi shahar yo’nalishining umumiy masofasi 27,99 km ni tashkil etadi. Yo’nalishda tender talablariga mos ravishda yo’nalishda 20 ta avtotransport vositalari mavjud hisoblanadi. Jadval bo’yicha avtomobillar soni : ish kunlarida 16ta harakatlanadi va 4 tasi rezervda turadi. Shanba kunlari 12ta, yakshanba kunlari esa 8 ta avtobus yo’nalish bo’yicha harakatlanadi. Rasmiy xarita va ma’lumotlarga ko‘ra yo‘nalish quyidagicha bekatlardan o‘tadi: Pistamozor ko’chasi, Boburshoh ko’chasi, Milliy tiklanish ko’chasi, Amur Temur ko’chasi, Paxtakor ko’chasi, Sanoat ko’chasi, Milliy tiklanish ko’chasi,Otabekov kochasi. Bu yo‘nalish shaharning markaziy hududini pistamozor hududi bilan bog‘laydi. Bu yo’nalishdagi avtobus rusumi “ZONGTON”. Bu avtobuslar 2021 yil olib kelingan . O’sha paytdagi narxi 62500$ bo’lgan. Yo’nalishdagi avtobusalrning uzunligi 9.5 metr hisoblanadi.. Yo’lovchi o’rindiqlar soni taxminan 28 ta bo’ladi . Umumiy sig’imi (tik turganlar 48ta): 76 ta yo’lovchilarni tashish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Mazkur yo’nalishda bekatlar soni yo’nalish bo’ylab 14ta , qaytishda esa 12ta bekatlar mavjud.Ushbu yo’nalishdagi avtobuslar harakat intervali 10 daqiqa etib belgilangan. Bu yo’nalishdagi avtobuslar bekatlar orasidagi farq 15 minut hisoblanadi. Yo’nalishda harakatlanayotgan avtobuslarning yo’l kira narxlari naqd pul orqali to’lansa 3000 ming so’m etib tayinlangan.

Elektron to’lov tizimi orqali esa 2100 so’m etib belgilangan. . Bu yo’nalishdagi avtobuslar birinchi reysi soat ertalab 6:00 da boshlanadi va oxirgi reysi kechki soat 21:01 da tugaydi. Soat 6:00 da ishga chiqqan avtobuslar kuniga 16 ta qatnovni amalga oshiradilar . 222-yo‘nalish – “Pistamozor- Markaziy shahar shifoxonasi” hududlarida harakatni amalga oshiriladi. Eng ko’p yo’lovchilar oqimi bo’ladigan joylar bu Tibbiyot insituti , Klinika , Onkologiya dispanseri, Sharda universiteti, Andijon davlat texnika insituti, Med kollej, Hamkorbank ,Avtovakzal yonida, Xolis SM, Mumtoz SM Sakurani oldilarida, Pistamozorda yo’lovchilar oqimi ko’p bo’ladi. Yo’nalish harakatdagi vaqti 1:05 tashkil etadi.



75-sonli avtobus yo'nalish

75- sonli avtobus yo'nalishining ochilish sanasi 2023 yil bo'lib, yo'nalishning ishlash mavsumi doimiy hisoblanadi. Mazku yo'nalish tender talablariga ko'ra yo'nalishda eng ko'pi bilan 30ta avtobus bor. Jadval bo'yicha avtomobillar ish kunlarida 24 ta avtobus harakatlanadi va 6 tasi rezerv da turadi. Shanba kunlari 20ta va yakshanba kunlari esa 12ta avtobus yo'nalish bo'yicha harakatlanadi. Mazkur yo'nalish ya'ni Pistamozor bekatidan 36-post bekatigacha 19,2 km hisoblanadi. Kelish yo'nalishi 36-Post bekatidan Pistamozor bekatigacha 18,7 km ni tashkil etadi. 75-sonli Pistamozor -36-Post shahar yo'nalishning umumiy uzunligi esa 37,9 km ni tashkil etadi. 75- yo'nalish Pistamozor bekatidan 36-post oralig'ida harakatlanadi. Yo'nalish davomida u ko'p turli shaxar ko'chalaridan o'tadi va jami 46 ta bekatda to'xtaydi.

Yo'nalishdagi avtobuslar asosiy yo'llar bo'ylab harakatlanib bular: Termiziy ko'cha, Uzbekiston ko'chasi,Fitrat ko'chasi, Oltinko'l ko'chasi, Cho'lponshoh ko'chasi, , Universitet ko'chasi, Navoiy ko'chasi, Milliy tiklanish ko'chasi, Bobur shoh ko'chasi, Pistamozor yo'li yakuniy bekatlar hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi avtobus rusumi "ZONGTON". Yo'nalishdagi avtobuslar 2021 yil olib kelingan bo'lib o'sha paytdagi tan narxi 62500$ bo'lgan. Bu yo'nalishdagi avtobuslar uzunligi 9.5 metr bo'lib, hozirgi kunda bu yo'nalishda avtobusning yo'lovchi sig'imi o'rindiqlar soni 28 ta bo'lib, tik turganlar soni 48ta bo'lib, umumiy yo'lovchilar sig'imi 76ta bo'lib , bir vaqtning o'zida wuncha yo'lovchilarni o'z manzillariga yetkazib olib boradi. Ushbu yo'nalishdagi harakatlanayotgan avtobuslar oraliq intervali 10 daqiqa etib belgilangan . Bu yo'nalishdagi avtobuslar bekatlar orasidagi vaqti 10 - 15 minut etib belgilangan. Pistamozor -36-post avtobus yo'nalishi yo'l kira narxlari : naqd pul oraqali 3000ming so'm etib belgilangan,bo'lib elektron to'lov orqali esa 2100 so'm etib tayinlangan. . 75-yo'nalish – "Pistamozor -36-Post" (ADU orqali) avtobus yo'nalishlari harakatlanadi. Eng ko'p oqim bo'lgan joylari ADU, Eski shahar va Soy kurgovoyi yaqinida, Yangi bozor, Eski shahar, O'zbekiston ko'cha 48 - maktan va 5- maktablar oldida yo'lovchilar oqimi yuqoriroq bo'ladi. . Yo'nalishda ish vaqti soat 6:00 da boshlanib kechki soat 21:25 gacha davom etadi kunlik qatnovlar soni 24 ta



Xulosa. Xulosa qilib aytganda Andijon shahridagi avtobus yo‘nalishlarini tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, shahar jamoat transporti tizimi aholi harakatlanish ehtiyojlarini qisman qondirib kelmoqda. Asosiy yo‘nalishlar shahar markazi va chekka hududlarni bog‘lashga xizmat qiladi, bu esa aholining ish, ta’lim va xizmat ko‘rsatish maskanlariga yetib borishini osonlashtiradi. Shu bilan birga, ayrim yo‘nalishlarda qatnovlar orasidagi vaqtning uzoqligi, ayrim hududlarda avtobuslar yetishmasligi hamda tirbandlik muammolari mavjudligi kuzatildi. Bu holatlar transport tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Andijon shahridagi avtobus yo‘nalishlari tizimi rivojlanish bosqichida bo‘lib, uni optimallashtirish, yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish va xizmat sifatini oshirish shahar transport infratuzilmasining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. *Jamoat transporti tizimini rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar*. Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari. *Shahar yo‘lovchi tashish transportini tashkil etish qoidalari*.
3. “Alpomish merosi” MCHJ. *222 va 75-sonli avtobus yo‘nalishlari bo‘yicha ichki statistik ma’lumotlar va hisobotlar*. Andijon, 2025.
4. Karimov I. A. *Transport infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlik*. Toshkent, 2019.
5. Sodiqov A. S. *Shahar transport tizimi va uni boshqarish asoslari*. Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. *Transport bo‘limi*. Toshkent, 2000–2005.
7. Andijon shahar hokimligi. *Shahar jamoat transporti yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami*. Andijon, 2024.
8. Internet manbalari:
9. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi rasmiy axborot portali